

TALABALARNING BADIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA XALQ
ME'ROSIDAN FOYDALANISH METODIKASI

Yunusov Odil G'aybullaevich

Musiqqa ta'limi kafedrasida katta o'qituvchisi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya. *maqolada talabalarning badiiy tafakkurini rivojlantirishda xalq me'rosidan foydalanish metodikasi haqida gap borgan.*

Kalit so'zlar: *badiiy tafakkur, ta'sirchan vositalar, tasviriy vositalar, ko'rgazmali vositalar.*

Bo'lajak kadrlar raqobatbardoshligini oshirish, jamiyatda ijodkor shaxslar sonini ko'paytirish, ijodkor muhitni yaratish, badiiy tafakkurini rivojlantirishda talabalik davridanoq shaxsga psixologik-pedagogik ta'sir ko'rsatish masalalari zamonaviy ta'lim maqsadlarini belgilab bermoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev aytganidek – “Yangi O'zbekiston poydevorini yaratishda ilm-fan, ma'naviy va madaniy faoliyat, ta'lim-tarbiya sohalarini keng rivojlantirish va yangi bosqichga olib chiqish muhim ahamiyat kasb etadi”.

Shu bois talabalarning ongini, dunyoqarashini, shaxsiyatini shakllantirish, badiiy tafakkurini rivojlantirishda madaniy tadbirlardan keng va sifatli foydalanish bugunning dolzarb masalasidir.

Oliy ta'lim orqali talaba shaxsida ijodkorlik, kreativlikni shakllantirish, badiiy tafakkurning psixologik asoslarini tadqiq etish, ilmiy, badiiy va texnik ijodkorlikning bo'lajak mutaxassis uchun ahamiyatini yoritishdan iborat.

Madaniy tadbirlar talabalarning darsdan bo'sh vaqtida ularga kerakli axborotlar berish, badiiy-estetik zavqlantirish, badiiy tafakkurini rivojlantirish, madaniy-ijodiy ishga jalb qilish hamda ularning mazmunli hordiq chiqarishlari uchun yordam beradi. Oliy ta'lim muassasalarida bu kabi madaniy tadbirlarni tashkil etish mobaynida ta'sirchan vositalardan foydalanish imkoniyatlari keng bo'lishiga qaramay, aksariyat madaniy tadbirlarda ta'sirchan vositalarni qo'llashda e'tiborsizlik bilan qaralmoqda.

Madaniy tadbirlarda ta'sirchan vositalarni qo'llash uslublari haqida so'zlashdan oldin ta'sirchan vositaning o'zi nima?, – degan savolga javob berishimiz lozim. San'atning qaysi turi (kino, teatr, sirk, musiqa, qo'shiq, raqs, tasviriy san'at, haykaltaroshlik va h.k.) bo'lmasin insonning ko'zini yashnatib, kayfiyatiga, ongiga, vujudiga, qalbiga va ruhiyatiga ta'sir etishi uchun qo'llaniladigan barcha vositalar ta'sirchan vositalar deyiladi.

Pedagogika fanlari nomzodi, rejissyor Farhod Ahmedov fikriga ko'ra «Adabiyotda – so'z; tasviriy san'atda – chiziq, rang-tasvir; musiqada – tovush; haykaltaroshlikda

esa plastik shakllar va h.k. ta'sirchan vosita va material bo'lib xizmat qiladi. Ta'sirchan vositalarni ba'zi mutaxassislar tomonidan «badiiy ifodali vosita» ham deb yuritiladi[4.-B.149]. Masalan: Jumanazar Dushamov o'zining «Ommaviy tadbirlar rejissurasi» kitobida “Libos, rekvizit, musiqa, yorituvchi chiroq va proeksiyalarbular hammasi an'anaviy, badiiy ifodaviy vositalar hisoblanib, tomoshaviy san'atning barcha turlarida, badiiy obraz yaratishda ishlatiladi”-deb yozgan. Oliy ta'lim muassasalarida o'tkaziladigan madaniy tadbirlarda kostyumlar (badiiy liboslar), rekvizitlar, musiqa, nur va rangli chiroqlar, video materiallar hamda proeksiyalardan ta'sirchan vositalar sifatida keng foydalanishni tavsiya etish mumkin.

Hozirgi texnika rivojlangan paytda, kompyuter texnologiyalari taraqqiyoti san'atning barcha jabhalariga kirib, uning rivojiga hissa qo'shmoqda. Har bir ta'sirchan vositalarga qisqa ta'rif beradigan bo'lsak musiqa tadbirning bayramona ruhiyatini vujudga kelishga yordam berib, uning emotsional ta'sirini oshirib bersa, turli diodli lampalar, lazerli uskunalar bayram va tomoshalar obrazini yanada ta'sirchan ochib berishga yordam beradi. Video proeksiyalar esa tadbir tomoshasi badiiy obrazini yaratishga, kompozitsion bir butunlikni ta'minlashga katta yordam beradi. Bir so'z bilan aytganda bu vositalar bo'lajak tadbirning ta'sirchanligini oshirib, uning g'oyasini talaba yoshlarga singdirishda katta xizmat qiladi. Buning natijasida talabalarning badiiy tafakkuri rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Har bir tadbirdan ko'zlangan maqsad bo'ladi. Ana shu maqsadga erishilgani yoki erishilmagani uning natijadorlik darajasini belgilab beradi. Agar tadbirdan so'ng ma'lum bir muddat davomida maqsadga erishilsa, demak, tadbir o'z samarasini bergan bo'ladi. Shuning uchun har bir tadbirni o'tkazishda tadbir samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladigan vositalarga katta e'tibor berish kerak.

Madaniy tadbirlarni tashkil etishda turli xil vositalardan ham foydalanish maqsadga muvofiq.

- jonli so'z, hujjatli manbalar, matbuot va hokazo;
- badiiy vositalar (badiiy so'z, musiqa, raqs, teatr, adabiyot);
- badiiy vositalar (badiiy so'z, musiqa, raqs, teatr, adabiyot);
- tasviriy vositalar (taklifnoma e'lon, dastur, afisha, buklet, dastur, emblema, baner va hokazolar);
- texnik vositalar (radio, TV, audio, video, texnogen apparaturalar, elektron axborot vositalari) va boshqalar Bu kabi vositalar tadbirning tarkibiy qismi, asosiy komponentlari va mexanizmlari sifatida xizmat qiladi.

Maktab o'quvchilarining intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish dolzarb muammolardan biridir. Ishning eng samarali usullaridan biri qidiruv faoliyati, ya'ni eksperimentdir. Qidiruv faoliyati qanchalik xilma-xil va qizg'in bo'lsa, bolalar tezroq va to'liq rivojlanadi.

Atrofimizdagi dunyo juda ko'p yashirin va noma'lum narsalarni o'z ichiga oladi, buning natijasida inson hayoti davomida hal qilishi kerak bo'lgan qiyinchiliklar,

kutilmagan hodisalar va muammolar paydo bo'ladi. Bu dunyoni chuqur bilishni, odamlar va narsalarning yangi jarayonlari, xususiyatlari va munosabatlarini bilishni talab qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish dolzarb muammolardan biridir. Ishning eng samarali usullaridan biri qidiruv faoliyati, ya'ni eksperimentdir. Tajriba maktab o'quvchilarining turli tashkiliy va mustaqil faoliyatida qo'llanilishi mumkin. Maktab dasturlari va darsliklari qanday o'zgarmasin, o'quvchilarning intellektual faolligi doimo ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi. Aql tabiat tomonidan berilmaydi, u hayot davomida rivojlanishi kerak. Binobarin, intellektual rivojlanish yosh avlodni tarbiyalashning asosiy vazifasidir.

Hozirgi vaqtda bolalarning faolligi va intellektual rivojlanishiga yordam beradigan ta'lim jarayonlari, uslublari va usullari tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Seksiyalar, to'garaklar kabi maktabdan tashqari qo'shimcha ta'lim bolalarning ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishga imkon beradigan muhim ahamiyatga ega. yangi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish va o'quv jarayonida olinganlarni mustahkamlash. Xalq amaliy san'ati namunalari ta'lim sohasida ham qayta tiklanmoqda. Turli darajadagi ta'lim muassasalarida xalq shogirdligi an'analari davom etmoqda: bu san'atning eng sara namunalari ko'paytirilmoqda, yangi zamonaviy kompozitsiya va syujetlar, zamon ruhiga mos shakl va ranglar ishlab chiqilmoqda.

Qo'shimcha tavsiya sifatida aytish mumkinki, madaniy tadbirlarni tashkil etishda ta'sirchan vositalardan unumli foydalanish tadbirning salohiyatini ko'taradi, saviyasini oshiradi va badiiyligini ta'minlaydi. Ammo bu vositalardan foydalanish tadbir tashkilotchilardan boy va ijodiy fantaziyani talab kiladi. Xulosa qilganda, oliy ta'lim muassasalarida taxsil olayotgan talabalarimizni badiiy tafakkurini rivojlantirishda madaniy-ma'rifiy tadbirlar juda muxim o'rin tutadi. Bunday tadbirlar oldindan tuzilgan reja va ssenariy asosida, talabalarni jalb etgan xolda tayyorlansa va o'tkazilsa, ularning tarbiyaviy ahamiyati yana ham yuksak bo'ladi. Oliy ta'limda o'tkaziladigan madaniy-ma'rifiy tadbirlar - tarbiyaning kuchli vositasi. Madaniy tadbirlar orqali talabalarni ma'naviyaxloqiy tarbiyalashda yuqori samaradorlikka erishish uchun, bu tadbirlarni tashkil etish va o'tkazishda tarbiyaviy ta'sirga alohida e'tibor berish hamda o'zini-o'zi tarbiyalash jarayoni kechishiga undaydigan ta'sirchan vositalardan o'z o'rnida foydalanish lozim.

ADABIYOTLAR:

24. Кадирова, З. З. (2019). Психолого-педагогические проблемы изучения понимания учебно-воспитательных ситуаций учителем. Профессионализм педагога: компетентностный подход в образовании, 1(1), 6-11.

25. Kadirova, Z. Z. (2022). Alisher Navoiyning nasriy asarlarida perifrastalar. *Monografiya*, 1(1), 120.

26. Leylo, M., & Pavlovna, I. Y. (2023). Motive of children's suffering in the story z. prilepin “white square”. *Scientific approach to the modern education system*, 1(10), 77-80.
27. Yuliya, I. (2023). The place of Shamshad Abdullayev and the “Fergana school of poetry” in modern literature. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 521-523.
28. Isayeva, Y. (2023). Relevance of studying national character. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 4(05), 95-100.
29. Astanova, G. A. Analysis of the image of wise and entrepreneurial women in Shahrizoda stories. *theoretical & applied science Учредители: Теоретическая и прикладная наука*, (9), 533-537.
30. Aminovna, A. G. (2020). Interpretation of the image of the hero woman in the stories of Shahrizoda. *PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology*, 17(6), 14365-14373.
31. Dusnazarova, M. I. (2022). Legal Regulation of Marriage-Wedding Traditions in Modern Uzbekistan. *Modern Journal of Social Sciences and Humanities*, 1(11), 23-29.
32. Elamanovna, D. M. (2021, March). Works and environmental education. *Archive of Conferences*, 17(1), 79-80.
33. Akhmedov, B. A. (2024). Dialogue Leading to a Problematic Situation and Its Place in School Education. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 28, 17-21.
34. Akhmedov, B. A. (2023). Socratic methods in education based on conflict dialogue. *Sciental Journal of Education Humanities and Social Sciences*, 1(3), 1-7.
35. Akhmedov, B. A. (2024). Reorganization of teaching manual in higher education in Tashkent region. *Uzbek Scholar Journal*, 24, 13-25.
36. Akhmedov, B. A. (2024). Methods Of Improving the Quality of Dissertation Works in The Exact Sciences of The Tashkent Region. *Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments*, 2(1), 39-57.
37. Akhmedov, B. A. (2023). Socratic dialogue as a response to the challenge of the Epoch. *Sciental Journal of Education Humanities and Social Sciences*, 1(1), 1-9.
38. Akhmedov, B. A. (2023). Physics is a Science Forming Knowledge About Health. *Diversity Research: Journal of Analysis and Trends*, 1(3), 350-355.
39. Тангиоров, И. X., & Ахмедов, Б. А. (2021). Перспективы развития правового государства. *Политика и общество*, 7(18), 178-186.
40. Axmedov, B. A., & Muxamedov, G. I. (2021). Klaster Mobile DGU 09834.
41. Akhmedov, B. A. (2023). Use of information technology in medicine, history, biology, literature, physical education. *Uzbek Scholar Journal*, 22, 17-29.
42. Inomjonov, N., Axmedov, B., & Xalmetova, M. (2023). Kasbiy faoliyatida axborot-kommunikativ kompetentlikni oshirish usullari. *Academic research in educational sciences*, 4(CSPU Conference 1), 580-586.

43. Akhmedov, B. A., & Khimmataliyev, D. O. (2023). The emergence-theoretical aspects of dialogue in education. *Sciential Journal of Education Humanities and Social Sciences*, 1(2), 1-7.
44. Inomjonov, N., Axmedov, B., & Xalmetova, M. (2023). Kasbiy faoliyatida axborot-kommunikativ kompetentlikni oshirish usullari. *Academic research in educational sciences*, 4(CSPU Conference 1), 580-586.
45. Akhmedov, B. A. (2023). Prospects and trends of digital twins in education. *Uzbek Scholar Journal*, 23, 6-15.
46. Akhmedov, B. A., Makhmudova, D. M., & Akhmedjonov, D. G. (2024). Using the Socrates method in improving the quality of education in pedagogical universities. *Sciential Journal of Education Humanities and Social Sciences*, 2(1), 16-24.